ISSN
3060-527X

№7
2026

# TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

# TA’LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

*Xalqaro ilmiy-metodik jurnal*

# ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

*Международный научно-методический журнал*

# PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

*International scientific methodological journal*

**№ 7-Son, 1-Qism 2026-yil**

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.*
*Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi*

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**

# MUNDARIJA:


| Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Yo'nalishi | Bet |
|---|---|---|---|
| *AXROROV VORIS YUNUSOVICH* | BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA NIZOLI VAZIYATLARDA HISSIY BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI | PSIXOLOGIYA | 10 |
| | СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ | | |
| | SOCIO-PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS | | |
| *ARABBAYEV AROBIDIN XUSNIDINOVICH* | PEDAGOGIK YO‘NALISHDAGI MAGISTRANTLARDA ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATI ASOSIDA ILMIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH | PEDAGOGIKA | 15 |
| | ФОРМИРОВАНИЕ НАУЧНЫХ НАВЫКОВ НА ОСНОВЕ НАУЧНО- ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У МАГИСТРАТУР ПО ПЕДАГОГИЧЕСКОМУ НАПРАВЛЕНИЮ | | |
| | FORMATION OF SCIENTIFIC SKILLS ON THE BASIS OF RESEARCH ACTIVITY IN MASTER STUDENTS IN PEDAGOGICAL DIRECTION | | |
| *BADALXODJAYEV TO'LQINJON IKRAMIDDINOVICH* | SUN’IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN MOSLASHUVCHAN O‘QUV PLATFORMALARI | PEDAGOGIKA | 24 |
| | АДАПТИВНЫЕ ПЛАТФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА | | |
| | ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED ADAPTIVE LEARNING PLATFORMS | | |
| *HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI* | BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI | PEDAGOGIKA | 29 |
| | МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ | | |
| | METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME TECHNOLOGIES IN DEVELOPING THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS | | |
| *IBRAXIMJANOVA GAVHAR AMANBAYEVNA* | MUSIQA NAZARIYASI FANLARI UCHUN ELEKTRON TA’LIM PLATFORMALARINI YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH | PEDAGOGIKA | 35 |
| | СОЗДАНИЕ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПЛАТФОРМ ДЛЯ ДИСЦИПЛИН ПО ТЕОРИИ МУЗЫКИ | | |
| | CREATION AND USE OF ELECTRONIC EDUCATIONAL PLATFORMS FOR MUSIC THEORY DISCIPLINES | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *ISMATOVA HALOVAT BAXTIYOROVNA* | O‘SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR VA PROFILAKTIK YONDASHUVLAR<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ ДЕСТРУКТИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ, И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ<br>PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF DESTRUCTIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS AND PREVENTIVE APPROACHES | PSIXOLOGIYA | 40 |
| *KUSHAKOVA NODIRA ODILOVNA* | “J.D. SALINGERNING «THE CATCHER IN THE RYE» ROMANIDA «TA’LIM» KONSEPTUAL BIRLIGINING VERBALIZATSIYASI”<br>ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ЕДИНИЦЫ «ОБРАЗОВАНИЕ» В РОМАНЕ ДЖ. Д. СЭЛИНДЖЕРА «НАД ПРОПАСТЬЮ ВО РЖИ»<br>ERBALIZATION OF THE CONCEPTUAL UNIT “EDUCATION” IN J.D. SALINGER’S NOVEL THE CATCHER IN THE RYE | PEDAGOGIKA | 46 |
| *O'KTAMOVA SHOHIDA ODILBEK QIZI* | O‘SMIRLAR EMOTSIONAL HOLATINI EKSPERIMENTAL O‘RGANISH<br>ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ ПОДРОСТКОВ<br>EXPERIMENTAL STUDY OF ADOLESCENTS’ EMOTIONAL STATE | PSIXOLOGIYA | 54 |
| *PANJIYEV QURBONNIYOZ BERDIYEVICH* | BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR TAHLILI<br>АНАЛИЗ СОВРЕМЕННЫХ ПОДХОДОВ К РАЗВИТИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ<br>ANALYSIS OF MODERN APPROACHES TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS | PEDAGOGIKA | 62 |
| *RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA* | TALABALARDA IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING ROLI<br>РОЛЬ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СТУДЕНТОВ<br>THE ROLE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION | PSIXOLOGIYA | 68 |
| *RO'ZIMURODOV ILYOS AZAMAT O'G'LI* | BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINING CHOLG‘U IJROCHILIGI KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AFG‘ON RUBOBIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI<br>ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АФГАНСКОГО РУБАБА В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ИНСТРУМЕНТАЛЬНОЙ ИСПОЛНИТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ<br>PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF USING THE AFGHAN RUBAB IN IMPROVING THE INSTRUMENTAL PERFORMANCE COMPETENCE OF FUTURE MUSIC TEACHERS | PEDAGOGIKA | 75 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *XUSANOVA NIGINA BAXTIYOR QIZI* | O‘QITUVCHINING INNOVATSION MADANIYATI PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINING MUHIM OMILI SIFATIDA<br>ИННОВАЦИОННАЯ КУЛЬТУРА ПЕДАГОГА КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ<br>THE INNOVATIVE CULTURE OF A TEACHER AS AN IMPORTANT FACTOR OF PEDAGOGICAL ACTIVITY EFFICIENCY | PEDAGOGIKA | 81 |
| *ХУДДИЕВА УМИДА АМИНЖОН КИЗИ* | BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODI-KASI<br>МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА<br>METHODOLOGY FOR DEVELOPING MATHEMATICAL LITERACY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES | PEDAGOGIKA | 91 |
| *SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI* | TALABALARDA PEDAGOGIK DIZAYN ASOSIDA TA’LIMIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА<br>PSYCHOLOGICAL FEATURES OF DEVELOPING STUDENTS’ EDUCATIONAL COMPETENCIES BASED ON INSTRUCTIONAL DESIGN | PSIXOLOGIYA | 96 |
| *XAYDAROV ADXAM FAYZULLAEVICH* | TA‘LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ<br>FEATURES OF USING MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION | PEDAGOGIKA | 102 |
| *AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI* | ALISHER NAVOIY ASARLARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BAG‘RIKENGLIK VA O‘ZARO HURMAT MADANIYATINI TARBIYALASH<br>ВОСПИТАНИЕ ТОЛЕРАНТНОСТИ И КУЛЬТУРЫ ВЗАИМНОГО УВАЖЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ<br>FOSTERING TOLERANCE AND A CULTURE OF MUTUAL RESPECT AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH THE WORKS OF ALISHER NAVOI | PEDAGOGIKA | 107 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI* | MAXSUS TA'LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI QO'LLABQUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI<br>РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ<br>THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS | PEDAGOGIKA | 113 |
| *АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ* | SHARQ FALSAFIY MEROSINING ZAMONAVIY ILMIY TADQIQOTLAR UCHUN METODOLOGIK AHAMIYATI<br>МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФСКОГО НАСЛЕДИЯ ВОСТОКА ДЛЯ СОВРЕМЕННЫХ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ<br>THE METHODOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE PHILOSOPHICAL HERITAGE OF THE EAST FOR CONTEMPORARY SCIENTIFIC RESEARCH | PEDAGOGIKA | 121 |
| *MUXAMEDOV FERUZ TO'LQINJONOVICH* | BO'LAJAK MUSIQA PEDAGOGLARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКИ<br>PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG FUTURE MUSIC EDUCATORS | PSIXOLOGIYA | 128 |
| *MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA* | YOSH OILALARDA EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ В МОЛОДЫХ СЕМЬЯХ<br>PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF EMOTIONAL COMPETENCE IN YOUNG FAMILIES | PSIXOLOGIYA | 134 |
| *XOLOV DILSHOD MURODILLO O'G'LI, SUNNATOVA O'G'ILOY KAMARDIN QIZI, SUNNATOVA O'G'ILOY KAMARDIN QIZI* | O'QUVCHILARNING BILIM, KO'NIKMA, MALAKA VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI<br>ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ, УМЕНИЙ, НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ ОБУЧАЮЩИХСЯ<br>THEORETICAL FOUNDATIONS OF ASSESSING STUDENT | PEDAGOGIKA | 139 |
| *HAMROYEVA XOLIDA RIZOQUL QIZI* | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING NUTQ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA VIZUAL VOSITALAR VA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI<br>МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВИЗУАЛЬНЫХ СРЕДСТВ И ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ<br>METHODOLOGY FOR USING VISUAL AIDS AND GAME-BASED TECHNOLOGIES TO DEVELOP THE SPEECH ACTIVITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS | PEDAGOGIKA | 145 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *ISMATOVA SAYYORA SOBIR QIZI* | TADBIRKORLIK KOMPITENSIYASINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA UNING MAZMUN MOHIYATI<br>ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ И ЕЁ СОДЕРЖАТЕЛЬНАЯ СУЩНОСТЬ<br>BASIC CONCEPTS OF ENTREPRENEURIAL COMPETENCE AND ITS CONTENT-RELATED ESSENCE | PEDAGOGIKA | 152 |
| *NORQULOVA SEVARA O'ROZ QIZI* | TALABALARNING INTELLEKTUAL VA KOGNITIV FAOLLIGINI TRENINGLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ И КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ТРЕНИНГОВ<br>PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' INTELLECTUAL AND COGNITIVE ACTIVITY THROUGH TRAINING PROGRAMS | PSIXOLOGIYA | 158 |
| *ABDURAZZAQOV O'KTAM ABDUQAYUMOVICH* | BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJODIY LAYOQATNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI<br>ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ<br>DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMING CREATIVE COMPETENCES IN PRIMARY STUDENTS | PEDAGOGIKA | 163 |
| *SODIQOVA GULBARNO ODILJON QIZI* | QIZ TALABALARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI<br>АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОК<br>ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE DEVELOPMENT OF FEMALE STUDENTS' SOCIAL ACTIVITY | PSIXOLOGIYA | 169 |
| *TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH* | BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA DIAGNOSTIK YONDASHUVNING PEDAGOGIK ASOSLARI<br>ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА К ФОРМИРОВАНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ<br>PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE DIAGNOSTIC APPROACH TO DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF FUTURE TEACHERS | PEDAGOGIKA | 173 |
| *XAMRAYEVA FIRUZA AZIMOVNA* | GADJETLARDAN FOYDALANISHNING BOLALAR DIQQAT, XOTIRA VA EMOTSIONAL REAKSIYALARIGA TA'SIRI<br>ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГАДЖЕТОВ НА ВНИМАНИЕ, ПАМЯТЬ И ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕАКЦИИ ДЕТЕЙ<br>THE IMPACT OF GADGET USE ON CHILDREN'S ATTENTION, MEMORY, AND EMOTIONAL REACTIONS | PSIXOLOGIYA | 178 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *TOHIROVA FERUZA* | BO‘LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI<br>ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ<br>PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS | PSIXOLOGIYA | 186 |
| *JO'RAYEV HUSEN IBOD O'G'LI* | TAEKVONDO MASHG‘ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI SPORTCHILAR TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH<br>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ТХЭКВОНДИСТОВ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ<br>IMPROVING THE TECHNICAL AND TACTICAL PREPARATION OF TAEKWONDO ATHLETES THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN TRAINING | PEDAGOGIKA | 194 |
| *AXMATQULOVA MAXFUZA SHUHRAT QIZI* | MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA LEKSIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING LINGVO-KOGNITIV XUSUSIYATLARI<br>ЛИНГВОКОГНИТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ<br>LINGUO-COGNITIVE FEATURES OF DEVELOPING LEXICAL COMPETENCE IN PRESCHOOL EDUCATION STUDENTS | PEDAGOGIKA | 203 |
| *USMONOV RAHIM RAXMONALI O'G'LI* | DEFFENBACHERNING DRIVING ANGER SCALE METODI ASOSIDA HAYDOVCHILARDAGI G‘AZABLANISH XUSUSIYATLARINI HAYDOVCHILIK TAJRIBASI KESIMIDA O‘RGANISH<br>ИЗУЧЕНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРОЯВЛЕНИЯ ГНЕВА У ВОДИТЕЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ ВОДИТЕЛЬСКОГО СТАЖА НА ОСНОВЕ МЕТОДИКИ ДЕФФЕНБАХЕРА «DRIVING ANGER SCALE»<br>A STUDY OF DRIVERS’ ANGER CHARACTERISTICS BASED ON DRIVING EXPERIENCE USING DEFFENBACHER’S “DRIVING ANGER SCALE” METHOD | PSIXOLOGIYA | 209 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *XUDDIYEVA UMIDA AMINJON QIZI* | BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH<br>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ<br>THE USE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES TO DEVELOP MATHEMATICAL LITERACY AMONG PRIMARY SCHOOL STUDENTS | PEDAGOGIKA | 215 |
| *NEMATOV SOHIB TESHAYEVICH* | JISMONIY MASHQLAR JARAYONIDA PSIXOLOGIK BARQARORLIK VA CHIDAMLILIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK<br>ВЗАИМОСВЯЗЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ И ВЫНОСЛИВОСТИ В ПРОЦЕССЕ ВЫПОЛНЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ УПРАЖНЕНИЙ<br>THE RELATIONSHIP BETWEEN PSYCHOLOGICAL RESILIENCE AND ENDURANCE DURING PHYSICAL EXERCISE | PSIXOLOGIYA | 221 |
| *RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH* | HARBIY XIZMATGA PSIXOFIZIOLOGIK TAYYORLASH JARAYONIDA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI<br>ЗНАЧЕНИЕ И ЭФФЕКТИВНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ПРОЦЕССЕ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ К ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ<br>THE IMPORTANCE AND EFFECTIVENESS OF DIGITALIZATION IN THE PROCESS OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL PREPARATION FOR MILITARY SERVICE | PSIXOLOGIYA | 228 |
| *ALIMARDANOVA SITORA IKROM QIZI* | MAXSUS TA’LIM EHTIYOJIGA EGA BOLALARNI QO‘LLAB QUVVATLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI<br>РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДДЕРЖКЕ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ<br>THE ROLE OF MODERN TECHNOLOGIES IN SUPPORTING CHILDREN WITH SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS | PEDAGOGIKA | 232 |
| *ASKAROVA ZEBINISO AKBAR QIZI* | FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA’LIM VOSITALARINING O‘RNI<br>РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ<br>THE ROLE OF DIGITAL EDUCATIONAL TOOLS IN DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PHILOLOGY STUDENTS | PEDAGOGIKA | 240 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *AVEZOV DAVRONBEK SOBUROVICH* | BO‘LAJAK BOSHLANG‘CH SINF O‘QITUVCHILARINING AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI<br>ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ СРЕДСТВ БУДУЩИМ УЧИТЕЛЯМ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ<br>DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS IN USING INFORMATION AND COMMUNICATION TOOLS | PEDAGOGIKA | 246 |
| *AXMEDOVA NILUFAR ILHOMBOY QIZI* | NOGIRONLIGI BOR XOTIN-QIZLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI<br>ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН С ИНВАЛИДНОСТЬЮ<br>WAYS TO IMPROVE THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM FOR WOMEN WITH DISABILITIES | PEDAGOGIKA | 252 |
| *IZZATOV SHERZOD SAMAD O'G'LI* | SUN’IY INTELLEKT VA RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI<br>МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ<br>MECHANISMS FOR ENSURING THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE DIGITAL ENVIRONMENT | PSIXOLOGIYA | 257 |
| *MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA* | O‘ZBEK XALQ URF-ODATLARINING O‘QUVCHILAR TARBIYASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI<br>РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ ОБЫЧАДОВ В ВОСПИТАНИИ УЧАЩИХСЯ<br>THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF UZBEK FOLK TRADITIONS IN THE EDUCATION OF STUDENTS | PEDAGOGIKA | 262 |
| *NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA* | ONKOLOGIK BEMORLARDA PSIXOLOGIK MOSLASHUVNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI<br>СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ АДАПТАЦИИ У ОНКОЛОГИЧЕСКИХ ПАЦИЕНТОВ<br>SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING PSYCHOLOGICAL ADAPTATION IN ONCOLOGY PATIENTS | PSIXOLOGIYA | 267 |
| *RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA* | TALABALARDA IJTIMOIY YETUKLIKNI SHAKLLANTIRISH ORQALI TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI<br>ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ<br>PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION THROUGH THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ SOCIAL MATURITY | PSIXOLOGIYA | 276 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| *SAFAROVA SARVINOZ* | KOMMUNIKATIV MASHQLAR ASOSIDA YUQORI SINF O‘QUVCHILARINING LEKSIK KOMPETENSIYASINI DIAGNOSTIKA QILISH VA BAHOLASH MEZONLARI | PEDAGOGIKA | 283 |
| | КРИТЕРИИ ДИАГНОСТИКИ И ОЦЕНКИ ЛЕКСИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ КОММУНИКАТИВНЫХ УПРАЖНЕНИЙ | | |
| | CRITERIA FOR DIAGNOSING AND ASSESSING THE LEXICAL COMPETENCE OF SENIOR SECONDARY SCHOOL STUDENTS BASED ON COMMUNICATIVE EXERCISES | | |
| *SAYIPOVA DILOBAR RAXIMOVNA* | OLIY TA’LIMDA MUSTAQIL ISHLASHGA O‘RGATUVCHI TOPSHIRIQLAR: DUNYO VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI | PEDAGOGIKA | 289 |
| | ЗАДАНИЯ ОБУЧАЮЩИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: МИРОВОЙ И УЗБЕКСКИЙ ОПЫТ | | |
| | TEACHING ASSIGNMENTS THAT FOSTER INDEPENDENT LEARNING IN HIGHER EDUCATION: GLOBAL AND UZBEK EXPERIENCE | | |
| *TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA* | TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA IDENTIKLIKNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI | PEDAGOGIKA | 294 |
| | МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ИДЕНТИЧНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ | | |
| | MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS’ IDENTITY BASED ON NATIONAL VALUES IN THE EDUCATIONAL PROCESS | | |
| *XOMUDJONOVA FERUZA KOMILJON QIZI* | MURAKKAB YUKLAMALARNI HISOBGA OLGAN HOLDA 15-16 YOSHDAGI SPORTCHILARNING MAXSUS TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA ANIQLASH | PEDAGOGIKA | 302 |
| | СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ И ОПРЕДЕЛЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СПОРТСМЕНОВ 15-16 ЛЕТ С УЧЕТОМ СЛОЖНЫХ НАГРУЗОК | | |
| | IMPROVING AND ASSESSING THE SPECIAL PREPAREDNESS OF 15-16-YEAR OLD ATHLETES TAKING INTO ACCOUNT COMPLEX TRAINING LOADS | | |

**Izzatov Sherzod Samad o'g'li ,**
*Chegara Qo'shinlari harbiy xizmatchisi, Kapitan*

# SUN'IY INTELLEKT VA RAQAMLI MUHIT SHAROITIDA YOSHLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

***Annotatsiya***. *Ushbu maqolada sun'iy intellekt va raqamli muhit sharoitida yoshlar psixologik salomatligini ta'minlash muammolari tadqiq etilgan. Internetga qaramlik, virtual muloqotning kuchayishi hamda yoshlar o'rtasida stress, yolg'izlik va emotsional zo'riqishning ortish omillari tahlil qilingan. Muammoning yechimi sifatida yoshlar ruhiyatini himoya qilishga qaratilgan uch bosqichli (pedagogik, texnologik va ijtimoiy) kompleks mexanizmlar taklif etilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *sun'iy intellekt, raqamli muhit, yoshlar, psixologik salomatlik, internetga qaramlik, virtual muloqot, stress, yolg'izlik, raqamli immunitet, neyropedagogika, emotsional zo'riqish.*

# МЕХАНИЗМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ МОЛОДЕЖИ В УСЛОВИЯХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЦИФРОВОЙ СРЕДЫ

***Аннотация***. *В данной статье исследуются проблемы обеспечения психологического здоровья молодежи в условиях искусственного интеллекта и цифровой среды. Анализируются факторы интернет-зависимости, усиления виртуального общения, а также роста стресса, одиночества и эмоционального напряжения среди молодежи. В качестве решения предложены трехступенчатые (педагогические, технологические и социальные) комплексные механизмы защиты психики.*

***Ключевые слова:*** *искусственный интеллект, цифровая среда, молодежь, психологическое здоровье, интернет-зависимость, виртуальное общение, стресс, одиночество, цифровой иммунитет, нейропедагогика, эмоциональное напряжение.*

# MECHANISMS FOR ENSURING THE PSYCHOLOGICAL WELL-BEING OF YOUNG PEOPLE IN THE CONTEXT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND THE DIGITAL ENVIRONMENT

***Abstract.*** *This article explores the challenges of ensuring the psychological health of youth in the context of artificial intelligence and the digital environment. It analyzes internet addiction, the rise of virtual communication, and the factors contributing to increased stress, loneliness, and emotional tension among youth. As a solution, a three-tiered (pedagogical, technological, and social) comprehensive protection mechanism is proposed.*

***Key words:*** *artificial intelligence, digital environment, youth, psychological health, internet addiction, virtual communication, stress, loneliness, digital immunity, neuropedagogics, emotional tension.*

**Kirish.** XXI asrning birinchi choragiga kelib, sun'iy intellekt (SI) va transchegaraviy raqamli texnologiyalar insoniyat hayotining kognitiv hamda ijtimoiy sohalarini tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, shaxs sifatida shakllanish pallasida bo'lgan yoshlar raqamli muhitning eng faol iste'molchilari hisoblanadi. Bugungi kunda raqamli makon shunchaki axborot manbai emas, balki yosh avlodning xulq-atvori, qadriyatlari va emotsional holatini shakllantiruvchi global ijtimoiy-psixologik ekotizimga aylandi. Biroq, SI algoritmlari asosida ishlovchi ijtimoiy tarmoqlar va virtual platformalarning nazoratsiz kengayishi yoshlar o'rtasida kiber-addiksiya, ijtimoiy izolyatsiya, stress va chuqur emotsional inqirozlarni keltirib chiqarmoqda.

Xalqaro tadqiqotlar (masalan, JSST va YUNISEF hisobotlari) shuni ko'rsatadiki, kuniga 3 soatdan ortiq vaqtini virtual muhitda o'tkazadigan o'smirlarda depressiv simptomlar va

xavotirlanish darajasi boshqalarga nisbatan 27 foiz yuqori hisoblanadi. G'arb olimlaridan J.Tvenge, shuningdek, respublikamiz tadqiqotchilari (shaxs kibersavodxonligi va psixologik xavfsizligi muammolari doirasida) raqamli transformatsiyaning yoshlar subyektiv farovonligiga transformatsion ta'sirini faol o'rganmoqdalar.

Ushbu muammo O'zbekiston Respublikasida davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida ko'rilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raqamlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga, uning yoshlar ma'naviyati va ruhiyatiga salbiy ta'sirini bartaraf etish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar. Xususan, davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida internet makonidagi mafkuraviy xavf-hatarlar, yoshlarning virtual olamga qaram bo'lib qolishi va g'oyaviy bo'shliq muammolarini bot-bot ta'kidlab, raqamli muhitda yoshlarda mustahkam "g'oyaviy va psixologik immunitet"ni shakllantirish vazifasini olimlar va pedagoglar oldiga dolzarb vazifa qilib qo'ymoqdalar [2].

Yurtimizda yangi texnologiyalarni tartibga solish va yoshlar xavfsizligini ta'minlash borasida mustahkam huquqiy baza yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-sonli Qarori hamda raqamli rivojlanish strategiyalari doirasida mamlakatimizda SI texnologiyalarining inson huquqlari va psixologik xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligini ta'minlash choralari belgilangan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining axborot makonida voyaga yetmaganlarni ularning sog'lig'i va rivojlanishiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish, xususan, ta'lim muassasalarida raqamli madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan qator me'yoriy hujjatlari amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida psixologik xizmat tizimi tubdan isloh qilinayotgani, o'smirlar o'rtasida kibersavodxonlik va raqamli gigiyena qoidalarini targ'ib qilish bo'yicha keng ko'lamli amaliy ishlar olib borilayotgani ushbu muammoning ijtimoiy strategik ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Biroq, zamonaviy generativ sun'iy intellekt (ChatGPT, neyrotarmoqli chatbotlar, virtual hamroh-assistentlar) sharoitida o'smirlarning algoritmlar bilan paratizimli (soxta-ijtimoiy) muloqotga kirishib ketishi, real hayotdan uzilishi va buning natijasida kelib chiqadigan yangi shakldagi emotsional zo'riqishlarni profilaktika qilishning ilmiy-metodik mexanizmlari hali ham to'liq tizimlashtirilmagan. Mavjud psixologik xizmatlar ko'pincha an'anaviy muammolarga (bulling, suitsid, oilaviy nizolar) moslashgan bo'lib, SI ta'sirida yuzaga kelayotgan kognitiv buzilishlar (masalan, "klipcha fikrlash", dopaminergetik qaramlik, raqamli autizatsiya) ssenariylarini to'liq qamrab ololmayapti.

Shu bois, raqamli muhit va sun'iy intellekt sharoitida yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning institutsional, diagnostik va korreksion-profilaktik mexanizmlarini ishlab chiqish zamonaviy psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining bugungi kundagi eng kechiktirib bo'lmas va dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu maqolaning maqsadi — yoshlar ruhiyatiga raqamli tahdidlar salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan psixologik preventiv (oldini oluvchi) model va amaliy tavsiyalarni asoslab berishdan iborat.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqot konseptual va qiyosiy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda muammoni har tomonlama yoritish uchun Metodologik uchburchak modeli qo'llanildi. Fenomen uchta o'zaro uzviy yondashuv prizmasida tahlil qilindi:

1. Kognitiv-neyrobiologik (algoritmlarning dopaminergetik zanjirga ta'siri va diqqat atrofiyasi);
2. Ijtimoiy-psixologik (virtual muloqot, empatiya va sotsial ko'nikmalar deformatsiyasi);
3. Tizimli-pedagogik (oila va ta'lim ekotizimida preventiv mexanizmlarni loyihalash).

Tadqiqotning konseptual asosini J.Tvenge (raqamli sotsializatsiya va "iGen"), N.Karr (kognitiv yuklama va neyroplastiklik) hamda Sh.Turkl (simulyatsiya qilingan muloqot va virtual izolyatsiya) nazariyalari tashkil etadi.

Ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlashda xalqaro ilmiy markazlar (Gallup, Pew Research, APA, JAMA Psychiatry) tadqiqotlarining ikkilamchi qiyosiy tahlili (Secondary Data

Analysis) hamda raqamli muhit xavf-hatarlarini tizimlashtiruvchi modellashtirish va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi. Global muammolar 5 ta asosiy indikator (addiksiya, xavotirlanish, izolyatsiya, FOMO va dismorfofobiya) bo'yicha differensial tahlil qilindi.

Raqamli makon va sun'iy intellekt tizimlarining shaxs psixologiyasiga transformatsion ta'siri global miqyosda konseptual darajada o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishda bir nechta yetakchi psixologik va pedagogik nazariyalar mavjud:

Raqamli sotsializatsiya va "iGen" nazorati: Amerikalik psixolog Jan Tyuen o'zining ko'p yillik empirik tadqiqotlarida smartfon va ijtimoiy tarmoqlar ommalashgan davrdan boshlab yoshlar o'rtasida klinik depressiya va xavotirlanish (anxiety) ko'rsatkichlari chiziqli ravishda o'sganini isbotladi. U virtual olamni yoshlar sotsializatsiyasini deformatsiyaga uchratuvchi asosiy omil sifatida baholaydi.

Kognitiv yuklama va diqqat atrofiyasi: Nikolas Kar neyrobiologik va kognitiv yondashuv asosida internetdagi qisqa vizual formatlar miyaning chuqur fikrlash va uzoq muddatli xotirani shakllantirish qobiliyatini zaiflashtirishini ochib berdi.

Simulyatsiya qilingan muloqot va yadrolash: Sotsiolog va psixolog Sherri Turkle texnologiyalar insonlarni "birlikda, lekin alohida" holatga keltirib qo'yganini, sun'iy intellektga asoslangan robot va chatbotlar bilan muloqot insoniy munosabatlarning o'rnini bosa olmasligini va shaxsda chuqur subyektiv yolg'izlik hissini (perceived social isolation) kuchaytirishini nazariy jihatdan asosladi.

Mahalliy pedagogik-psixologik yondashuvlar: Respublika olimlari raqamli transformatsiya sharoitida talaba va o'smir yoshlarning deviant xulq-atvori, kiber-addiksiya va axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-pedagogik jihatlarini o'rganishmoqda [3][4]. Biroq, generativ sun'iy intellekt (GenAI) modellarining o'smirlar kognitiv sferasiga va emotsional barqarorligiga ta'siri bo'yicha yaxlit mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan [5].

Tadqiqot doirasida Metodologik uchburchak (Methodological Triangulation) modelidan foydalanildi:

Kognitiv-neyrobiologik yondashuv: Algoritmlarning dopaminergetik zanjirni (rag'batlantirish tizimini) qanday faol ko'rinishga keltirishi va iroda zaifligini shakllantirishi tahlil qilindi.

Ijtimoiy-psixologik yondashuv: Virtual muloqotning shaxslararo munosabatlardagi empatiya va ijtimoiy ko'nikmalarga (social skills) ta'siri o'rganildi.

Tizimli-pedagogik yondashuv: Muammoning yechimi sifatida ta'lim va oila ekotizimida profilaktik mexanizmlarni integratsiya qilish modeli ishlab chiqildi.

Xalqaro tashkilotlar (Gallup, JAMA Psychiatry, Pew Research Center, APA) tadqiqotlarining qiyosiy tahlili natijasida yoshlar ruhiyatidagi global muammolar quyidagi tizimli indikatorlar orqali aniqlandi va jadval ko'rinishiga keltirildi [7][9][11][12]:

**1-jadval.**

**Sun'iy intellekt va raqamli muhitning yoshlar psixologik salomatligiga ta'siri: global muammolar, psixologik oqibatlar va tadqiqot manbalari**

| T/r | O'rganilgan muammoli holatlar | Global ko'rsatkichlar va statistika | Psixologik / Neyrobiologik oqibati | Tadqiqot manbasi |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Internet va ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik (Raqamli addiksiya) | O'smirlarning 95%i internetdan uzluksiz foydalanadi; kunlik o'rtacha ekran vaqti 4.8 – 5 soatni tashkil etadi. | Neyrobiologik darajada "dopamin tuzog'i" shakllanadi; iroda zaiflashadi, vaqtni boshqarish atrofiyaga uchraydi. | *Gallup Institute / Pew Research Center* |
| 2. | Klinik depressiya va xavotirlanish (*Anxiety*) xavfi | Kuniga 3 soatdan ortiq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarga sarflaydigan | Surunkali tushkunlik, apatiya, ijtimoiy | *JAMA Psychiatry (Journal of* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | yoshlarda depressiya xavfi 2 baravarga (100% ga) ortadi. | adaptatsiyaning buzilishi va suitsidal tendensiyalar. | *the American Medical Association)* |
| 3. | Virtual muloqotning kuchayishi va izolyatsiya | 15–17 yoshdagi o‘smirlarning 50.4%i generativ sun’iy intellekt (SI-chatbotlar) bilan faol muloqot qiladi. | Simulyatsiya qilingan empatiya yuzaga keladi; real hayotdagi muloqot va nizolarni hal qilish ko‘nikmalari yo‘qoladi. | *University of North Carolina / APA* |
| 4. | FOMO sindromi va emotsional zo‘riqish | O‘smirlarning 48%i raqamli muhit ularning ruhiyatiga faqat salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini his qiladi. | Boshqalarning virtual "ideal" hayotiga nisbatan hasad, o‘zidan norozilik, doimiy orqada qolish qo‘rquvi. | *Pew Research Center / World Happiness Report* |
| 5. | Body Dysmorphia (Tana qiyofasidan nafratlanish) | Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bo‘lgan yosh qizlarning 70%i o‘z tanasidan norozi. | SI filtrlari va algoritmik go‘zallik standartlari ta’sirida o‘z tashqi ko‘rinishini qabul qila olmaslik, nevroz. | *BSI Standards / UN Youth Australia* |

Raqamli addiksiya va neyrobiologik mexanizmlar. Ijtimoiy tarmoqlar (TikTok, Instagram va b.) oddiy kontent ombori emas. Ularning negizida yotgan sun’iy intellekt algoritmlari foydalanuvchining ko‘z qorachig‘i harakati, sahifada to‘xtash soniyalari va layklarini tahlil qilib, "Shaxsiy mikromodellashtirish"ni amalga oshiradi [12]. Bu jarayon miyada qisqa muddatli dopamin gormonining portlashini keltirib chiqaradi. Yosh shaxs har gal sahifani yangilaganda miya yangi va kutilmagan rag‘bat oladi. Bu esa qimor o‘yinlariga qaramlik mexanizmi bilan to‘liq mos keladi. Natijada yoshlarning irodaviy sferasi va motivatsiyasi faqat virtual mukofot olishga moslashib qoladi.

Virtual muloqot va shaxsiyatsizlashuv. An’anaviy muloqot jarayonida inson verbal bo‘lmagan belgilarni (yuz mimikasi, ovoz tembri, tana tili) o‘qiydi va unda tabiiy empatiya shakllanadi. Virtual muhitda esa muloqot asosan korreksiya qilingan matn va filtrlar orqali kechadi. 2020-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, yoshlar orasida haqiqiy insonlar o‘rniga SI-chatbotlar (masalan, sun’iy intellekt asosidagi virtual sheriklar) bilan do‘stlashish holatlari keskin ko‘paydi. Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasi (APA) ogohlantirganidek, ushbu chatbotlar foydalanuvchiga doimo tasdiqlovchi va hech qachon ziddiyatga bormaydigan "ideal muloqot" muhitini beradi. Bu esa o‘smir miyasini real hayotdagi murakkab, hissiy jihatdan og‘ir va ziddiyatli insoniy munosabatlardan qochishga o‘rgatadi [8].

Stress va yolg‘izlik paradoksi. Raqamli dunyo insonlarni bir-biriga bog‘lagan bo‘lsa-da, subyektiv yolg‘izlik hissini yanada chuqurlashtirdi. Buning bosh omili — ijtimoiylashuvning qiyosiy tabiati. Yoshlar tarmoqdagi soxtalashtirilgan, muvaffaqiyatli hayot tasvirlarini ko‘rib, o‘zlarining real, oddiy hayotlarini past baholay boshlaydilar [9]. Bu holat psixologiyada subyektiv farovonlik ko‘rsatkichining (subjective well-being) pasayishiga va surunkali emotsional zo‘riqishga (nevrotizmga) olib keladi.

**Xulosa.** Sun’iy intellekt va global raqamli muhit sharoitida yoshlarning shaxs sifatida sotsializatsiyalashuvi hamda ularning psixologik salomatligini ta’minlash masalalari bugungi kunda transchegaraviy va fanlararo muammo hisoblanadi. O‘tkazilgan ilmiy-nazariy va empirik tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Raqamli addiksiyaning tabiati o‘zgardi: Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar va kontent platformalarining sun’iy intellekt (SI) algoritmlari asosida ishlashi yoshlar ruhiyatida passiv qaramlikni emas, balki neyrobiologik darajada dopaminergetik tobelikni va chuqur kognitiv yuklamani shakllantirmoqda.

2. Virtual muloqot psixologik izolyatsiyani kuchaytirmoqda: Yoshlarning real muloqotdan virtual aloqalarga hamda SI-chatbotlar bilan simulyatsiya qilingan do‘stlik modellariga o‘tishi

ularda tabiiy empatiya, shaxslararo munosabatlarni boshqarish va ziddiyatlarni hal qilish koʻnikmalarini (social skills) atrofiyaga uchratmoqda. Bu esa paradoksal ravishda subyektiv yolgʻizlik hissini va FOMO sindromini keltirib chiqarmoqda.

3. Kompleks yondashuv zarurati: Mazkur kiber-tahdidlar va emotsional zoʻriqishlarni oddiy taqiqlar yoki internetdan uzib qoʻyish kabi mexanik usullar bilan hal etib boʻlmaydi. Yoshlar psixologik xavfsizligini ta'minlash davlat, ta'lim tizimi, texnologik ishlab chiquvchilar va oila institutining oʻzaro integratsiyalashgan uch bosqichli (pedagogik, texnologik va ijtimoiy) mexanizmini talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishni jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PQ-4996-sonli Qarori.
2. Oʻzbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi "Bolalarni ularning sogʻligʻiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish toʻgʻrisida"gi OʻRQ-444-sonli Qonuni.
3. Barotov, Sh. R. (2018). Psixologik xizmat asoslari. Toshkent: "Oʻqituvchi" nashriyoti.
4. Ismoilova, A. R. (2025). Raqamli ta'lim muhitida oʻsmirlarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi masalalari. Pedagogika va psixologiya tadqiqotlari jurnali, 3(2), 45-52.
5. Oʻzbekiston Milliy universiteti xabarlari (Jonli muloqot va virtual makon psixologiyasi turkumi). (2026). OʻzMU xabarlari, ISSN 2181-7324, 7-son.
6. Carr, N. (2020). The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. New York: W. W. Norton & Company.
7. Primack, B. A., Shensa, A., & Sidani, J. E. (2017). Social Media Use and Perceived Social Isolation Among Young Adults. American Journal of Preventive Medicine, 53(1), 1-8.
8. Turkle, S. (2017). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.
9. Twenge, J. M. (2017). iGen: Why Today's Super-Connected Kids Are Growing Up Less Rebellious, More Tolerant, Less Happy. Atria Books.
10. Valkenburg, P. M., & Peter, J. (2011). Online Communication among Adolescents: An Integrated Model of Its Attraction, Opportunities, and Risks. Journal of Adolescent Health, 48(2), 121-127.
11. https://www.apa.org/topics/journal-ai-safety
12. https://www.pewresearch.org/internet/teens-and-tech

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-fevral kuni № 622042-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
**Elektron manzil:** https://fanistiqbollari.uz
Telegram raqami: -998 (93) 689-80-90

***Ta’limda istiqbolli izlanishlar xalqaro ilmiy-metodik jurnal.***
***Buxoro, 2026. № 7-Son, 1-Qism.***